

# МУГАЛЛИМ ҲАМ ЎЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИҶ



ISSN 2181-7138

№ 1/2 2022 жыл

## Илимий-методикалық журнал

**Редактор:**  
**А. Тилегенов**

**Редколлегия ағзалары:**  
Мақсет АЙЫМБЕТОВ  
Нағмет АЙЫМБЕТОВ  
Байрамбай ОТЕМУРАТОВ  
Кеңесбай АЛЛАМБЕРГЕНОВ  
Алишер АЛЛАМУРАТОВ  
Дилшодхўжа АЙТБАЕВ  
Өсербай ӨЛЕҰОВ  
Асқар ДЖУМАШЕВ  
Кеңесбай ДАУЛЕТЯРОВ  
Гүлнара ЖУМАШЕВА  
Мырзамурат ЖУМАМУРАТОВ  
Амангелди КАМАЛОВ  
Гулмира КАРЛЫБАЕВА  
Асқарбай НИЯЗОВ  
Сабит НУРЖАНОВ  
Уролбой МИРСАНОВ  
Арзы ПАЗЫЛОВ  
Зухра СЕИТОВА  
Айдын СУЛТАНОВА  
Тажибай УТЕБАЕВ  
Ризамат ШОДИЕВ  
Ойбахор ШАМИЕВА  
Бекзод ХОДЖАЕВ  
Дўстназар ХИММАТАЛИЕВ  
Гулрухсор ЭРГАШЕВА

**Шөлкемлестириўшилер:**  
**Қарақалпақстан Республикасы**  
**Халық билимлендириў**  
**Министрлиги, ӨЗПНИИ**  
**Қарақалпақстан филиалы**

**Өзбекстан Республикасы**  
**Министрлер Кабинети**  
**жанындағы Жоқарғы**  
**Аттестация Комиссиясы**  
**Президиумының 25.10.2007**  
**жыл (№138) қарары менен**  
**дизимге алынды**

**Қарақалпақстан Баспа сөз хәм**  
**хабар агентлиги тәрәпинен**  
**2007-жылы 14-февральдан дизимге**  
**алынды №01-044-санлы гуўалық**  
**берилген.**

**Мәнзил: Нөкис қаласы,**  
**Ерназар Алакөз көшеси №54**  
**Тел.: 224-23-00**  
**e-mail: [uzniipnkkf@umail.uz](mailto:uzniipnkkf@umail.uz),**  
**[mugallim-pednauk@umail.uz](mailto:mugallim-pednauk@umail.uz)**  
**[www.mugallim-uzliksiz-bilim.uz](http://www.mugallim-uzliksiz-bilim.uz)**

Журналға келген мақалаларға жуўан қайтарылмайды, журналда жарияланған мақалалардан алынған үзиндилер «Мугаллим ҳәм ўзликсиз билимлендириў» журналынан алынды, деп көрсетилиўи шәрт. Журналға 5-6 бет көлеминдеги материаллар еки интервалда TIMES NEW ROMAN шрифтинде электрон версиясы менен бирге қабыл етиледі. Мақалада келтирилген маглыўматларға автор жуўапкер.

## МАЗМУНЫ

### ТИЛ ҲАМ ӘДЕБИЯТ

|                                                                                                                                                      |    |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| <b>Ibadullaev K.M.</b> PIRLS xalqaro baholash dasturi talablari .....                                                                                | 4  |
| <b>Тешабоева З.С.</b> Шакл ва мазмун ўртасидаги функционал алоқалар - сўзлар орасидаги муносабатларни ифодаловчи восита сифатида .....               | 8  |
| <b>Маринова Н.Х.</b> Инновационные подходы обучению иностранному языку в неязыковых вузах .....                                                      | 10 |
| <b>Ахмадалиева М.Ш.</b> Роль литературной критики в саморазвитии писателя .....                                                                      | 14 |
| <b>Наримбоева Л.К.</b> Практические аспекты формирования коммуникативного подхода в развитии языковой личности при обучении иностранному языку ..... | 17 |
| <b>Achilova M.S.</b> Composition analysis of the work A.S.Chulpan .....                                                                              | 21 |

### ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

|                                                                                                                                                                                |    |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| <b>Ибадуллаев Қ.М.</b> Интерактив электрон доскалар – таълим сифатини оширишнинг омилли сифатида .....                                                                         | 24 |
| <b>Ахмадалиев Б.С.</b> PIRLS баҳолаш тизимида танқидий ўқиш тамойилларининг аҳамияти .....                                                                                     | 26 |
| <b>Шарипова Н.Б.</b> Ўқувчилар билан ишлаш жараёнида ноанъанавий дарсларни ташкил этиш .....                                                                                   | 30 |
| <b>Атабоев Ф.У.</b> Методы и формы обучения в непрерывное образование .....                                                                                                    | 34 |
| <b>Атабеков Ф.О.</b> Коммуникативная стратегия убеждения и способы её реализации в аргументационных текстах паремий .....                                                      | 38 |
| <b>Холматова С.К.</b> Медиакомпетентность педагога как фактор развитие медиаграмотности студентов .....                                                                        | 40 |
| <b>Исманова М.А.</b> Психологические свойства формирования профессиональной направленности личности педагога .....                                                             | 44 |
| <b>Носирова Р.Х.</b> Инновационные методы преподавания психологии и связь с педагогикой .....                                                                                  | 48 |
| <b>Санақулова А.Р.</b> Повышения качества педагогического корпуса в профессионально-ориентированное подготовке в межотраслевой интеграции .....                                | 51 |
| <b>Ибадуллаев К.М.</b> Применение компьютерных технологий в обучении географии .....                                                                                           | 54 |
| <b>Муталова Д.А.</b> Методы и формы обучения в непрерывное образование .....                                                                                                   | 57 |
| <b>Xidoyatova N.A.</b> Integrative approach: important element of teaching of foreign language .....                                                                           | 62 |
| <b>Shonasirova Z.Yu.</b> The role of independent works in educational process .....                                                                                            | 65 |
| <b>Xidoyatova N.A.</b> The psychological development of properties volitional qualities of pupils .....                                                                        | 68 |
| <b>Joraboyev A.B., G'anixo'jayev A.Sh.</b> Professional training of a teacher of a new formation in the conditions of the implementation of inter-industrial integration ..... | 72 |

### МИЛЛИЙ ИДЕЯ ҲАМ РУЎХИЙЛИҚ ТИЙКАРЛАРЫ, ТАРИЙХ, ФИЛОСОФИЯ

|                                                                                       |    |
|---------------------------------------------------------------------------------------|----|
| <b>Соатов Э.М.</b> Возможности предвидения: методы и средства познания будущего ..... | 75 |
| <b>Ismanova M.A.</b> Methodology of teaching history as an academic subject .....     | 79 |

## ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА, ИНФОРМАТИКА

|                                                                                                                                                                |    |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| <b>Турсунбоева М.Д.</b> Бўлажак меҳнат таълими ўқитувчиларининг касбий сифатларини узвийлик ва узлуксизлик тамойили асосида босқичма-босқич шакллантириш ..... | 86 |
| <b>Журабоев А.Б.</b> Совершенствование информационных технологий в формировании профессиональной компетентности будущего специалиста .....                     | 89 |
| <b>Холматова С.К.</b> Применение информационно-коммуникационной технологии в обучение правового мышление .....                                                 | 93 |
| <b>Каюмов Ж .С.</b> Теория применение информационно-коммуникационной технологии в образовании .....                                                            | 95 |
| <b>Tursunboyeva M.D.</b> System of information and communication technologies in the education .....                                                           | 99 |

## БАСЛАЎЧИ КЛАСС, МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМГИ ТАРБИЯ

|                                                                                                                                                     |     |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>Хурвалиева Т.Л.</b> Мактабгача 5-7 ёшдаги болаларни атроф олам билан таништиришда замонавий технологиялардан фойдаланиш .....                    | 103 |
| <b>Каримжанова Д.А.</b> Мактабгача таълим муассасаларда тарбияланувчиларни ижодкорлигини ривожлантиришнинг интерактив методлари .....               | 107 |
| <b>Хурвалиева Т.Л., Худойберганова Ш.Б.</b> Мактабгача ёшдаги болаларни атроф олам билан таништиришда хорижий тажрибалардан фойдаланиш .....        | 111 |
| <b>Abdullayeva M.D.</b> Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy-huquqiy me'yorlar asosida ijtimoiy ko'nikmalarni takomillashtirish yo'llari ..... | 115 |
| <b>Abdullayeva M.D.</b> Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarni ijtimoiy-huquqiy me'yorlar bilan tanishtirish .....                        | 118 |
| <b>Шанасирова З.Ю.</b> Подготовка будущего учителя к преподаванию дисциплины «Окружающий мир» в начальной школе .....                               | 120 |
| <b>Абдуллаев А.А., Эркинходжаева Г.Э.</b> Место и роль физической культуры в общей системе воспитания детей дошкольного возраста .....              | 125 |
| <b>Матмуродов А.К.</b> Повышение уровня самостоятельности на основе структуры урока труда в младших классах .....                                   | 129 |

## ФИЗИКАЛЫҚ ТАРБИЯ ХАМ СПОРТ

|                                                                                                                                                                |     |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>Носирова Р.Х., Рустамбекова Н.А.</b> Соғлом турмуш тарзини яратишда ижтимоий ҳамкорлик масалалари .....                                                     | 135 |
| <b>Солайдинов Э.Ш.</b> Соғлом турмуш тарзини яратишда кўхна халқ ўйинларидан фойдаланиш йўллари .....                                                          | 140 |
| <b>Хуррамов Э.Э.</b> Бўлажак жисмоний тарбия ўқитувчиларини инновацион фаолиятга тайёрлашда Европа мамлакатлари тажрибаларидан фойдаланиш технологиялари ..... | 142 |
| <b>Хакимов Ш.Т.</b> Жисмоний тарбия бўйича дарс конспектини тузиш методикаси .....                                                                             | 148 |
| <b>Абдуллаев А.А.</b> Физическое воспитание в системе подготовки человека к профессиональной деятельности .....                                                | 154 |
| <b>Абдуллаев А.А.</b> Социокультурные функции и роль физической культуры в формировании основных качеств и свойств личности .....                              | 157 |
| <b>Gimazudinov R.G.</b> The oretical and practical basis of badminton coach activity .....                                                                     | 160 |

окружающим миром. Были выдвинуты научные идеи по организации обучения и воспитание дошкольного образования.

## SUMMARY

The article highlights the pedagogical views of foreign scientists on familiarizing preschoolers with the outside world. Scientific ideas were put forward on the organization of training and upbringing of preschool education.

## BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA IJTIMOYIY-HUQUQIY ME'YORLAR ASOSIDA IJTIMOYIY KO'NIKMALARNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

*Abdullayeva M.D.*

*TVChDPI "Bolalar sporti" kafedrası o'qituvchisi*

**Tayanch so'zlar:** xulq-atvor qoidalari, axloqiy manbalar, estetik me'yorlar, "faoliyat standartlari".

**Ключевые слова:** правила поведения, этические ресурсы, эстетические нормы, "стандарты деятельности".

**Key words:** rules of conduct, ethical resources, aesthetic norms "standards of activity".

Shaxs hayoti bevosita jamiyatda, unda istiqomat qiladigan kishilar orasida kechadi. Jamiyat a'zolari o'rtasidagi shaxslararo aloqalarning samarali kechishi bevosita shaxsning ijtimoiy munosabatlar mazmuniga bog'liq. Ijtimoiy munosabatlar mazmuni esa o'z navbatida ijtimoiy me'yorlarning aniqlanganligi, jamiyat tomonidan qay darajada tan olinganligi hamda amaliy faoliyatda ularga rioya etilayotganligi bilan belgilanadi. Shaxs ta'lim olish jarayonida ijtimoiy madaniy muhit bilan bevosita o'zaro ta'sirlashadi va u shaxsga ta'limiy ta'sir ko'rsatadi.

Ijtimoiy me'yorlar aynan shaxslararo munosabatlar negizi, unda aks etuvchi xususiyatlarga muvofiq shakllantiriladi. Garchi shunday bo'lsa-da, biroq hamisha ham ijtimoiy me'yorlarning mohiyati jamiyat a'zolari tomonidan birdek anglanmaydi. Kuzatishlarga ko'ra ijtimoiy me'yorlarning mohiyati ko'p hollarda huquqiy yo'nalish bo'yicha maxsus ma'lumotga ega, aynan sud-huquq, soliq, bojxona yoki ichki ishlar tizimida faoliyat yuritayotgan shaxslar tomonidagina muayyan darajada anglanishi mumkin. Binobarin klaster yondashuv asosida ijtimoiy me'yorlar, ularning mazmunidan barcha birdek xabardor bo'lishlari kerakligining dolzarbligi yanada ortadi.

Shu bois fuqarolarni ijtimoiy me'yorlarning mohiyati bilan tanishtirish, ular to'g'risidagi ma'lumotlarning izchil berib borilishiga erishish jamiyat miqyosida hal qilinishi shart bo'lgan vazifalardan biri sanaladi. Bu vazifaning ijobiy hal qilinishida tarbiyaviy ta'sir kuchiga ega sub'ektlar qatorida ta'lim muassasalari ham alohida o'rin tutadi. Ta'lim muassasalari eng oddiy, shuningdek, ishlab chiqarish va kasbiy faoliyatni yo'lga qo'yish, inson huquqlarini muhofaza qilish darajasida aks etadigan ijtimoiy me'yorlardan o'quvchilarni xabardor qilish, ularning ahamiyati, rioya etish zaruriyatini anglatish imkoniyatiga ega. Mavjud imkoniyat ta'lim muassasalarida o'quvchilarni ijtimoiy me'yorlar mazmuni bilan bosqichma-bosqich tanishtirib borilishini ta'minlaydi.

Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarni ijtimoiy me'yorlar bilan tanishtirib, ularda ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirib borish, muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda tarbiyalanuvchilarga va boshlang'ich sinf o'quvchilariga beriladigan ma'lumotlar ularning kundalik hayotlarida namoyon bo'ladigan ijtimoiy munosabatlar, shaxslararo o'zaro muloqotga asoslanishi lozim. Ya'ni bolalarning ota-onalari, oila a'zolari, ular mansub bo'lgan mikromuhitdagi sub'ektlar va tarbiyachi-pedagoglar bilan munosabatlari bu jarayonda ustuvor ahamiyat kasb etadigan ijtimoiy me'yorlar misolida ochib beriladi.

O'qituvchi o'quvchilar e'tiborini ular tomonidan tashkil etilayotgan xatti-harakatlarning salbiy yoki ijobiy mazmunga egaligini ochib berish (nima yaxshi-yu, nima yomonligini, qanday harakat to'g'ri-yu, qaysi harakatlar noto'g'riligini ko'rsatish)ga tortish asosida ijtimoiy me'yorlar mohiyatini ochib beradi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarni ijtimoiy me'yorlar bilan tanishtirishda alohida o'rin tutadi. Muassasada pedagogik-psixologik, shuningdek, umumiy ijtimoiy bilimlarni maxsus o'zlashtirgan mutaxassislar - o'qituvchilarning faoliyat yuritishlari o'quvchilar tomonidan ijtimoiy me'yorlar mohiyatini to'g'ri anglash, ularning ijtimoiy, ma'naviy-axloqiy, huquqiy ahamiyatini tushunish, shuningdek, mazkur me'yorlarga kundalik faoliyatda rioya etish ko'nikmalarining izchil o'zlashtirilishini ta'minlaydi.

Boshlang'ich sinflarda ta'lim olayotgan o'quvchilar ijtimoiy me'yorlar, ularning mazmuni to'g'risidagi dastlabki eng oddiy tushunchalarni oila hamda maktabgacha ta'lim muassasalarida o'zlashtiradilar. Biroq, boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchilar hayotida o'ziga xos davr sanaladi. Bola o'zining jismoniy va ruhiy kamolotiga ko'ra ta'lim olishga to'la tayyor bo'ladi. Asosiy hayot tarzi sifatida o'yin faoliyati o'rmini o'qish faoliyati egallaydi. O'qish faoliyati o'quvchilarning ruhiy jihatdan yanada takomillashishlariga, xarakter xususiyatlarining shakllanishiga kuchli ta'sir etadi. Bilim olish va atrof-muhitni o'rganishga bo'lgan qiziqish kuchayadi. Mazkur hodisalarning barchasi o'quvchilarga ijtimoiy me'yorlar mohiyatini yetarli darajada anglashlariga yordam beradi.

Bilishga nisbatan ham hissiy yondashish boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'ziga xos xususiyatlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois ularni ijtimoiy me'yorlar bilan tanishtirishda berilayotgan ma'lumotlarni qiziqarli tarzda bayon etish, imkon qadar hayotiy misollar yordamida obrazli talqin qilish ijobiy natijalarni qo'lga kiritishga yordam beradi. His-tuyg'ularini ifodalashga qo'zg'aluvchanlik xosligi, shu bilan birga tengdoshlariga taqlid qilishning kuchliligi bois ijtimoiy hamda axloqiy me'yorlarga amal qilish yoki amal qilmaslik holatlarini ular xatti-harakatlari, xulq-atvori, odatlari misolida yoritish orqali tasavvurlarining yetarli bo'lishiga erishish imkoniyati yuzaga keladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining fikrlashlarida ham obrazlilik ustun bo'lganligi sababli ular o'qituvchi tomonidan berilayotgan tushunchalarning ma'nosidan ko'ra obrazi (shakli yoki tasviri)ga e'tiborni qaratadilar. Bu esa o'z-o'zidan ijtimoiy me'yorlar to'g'risidagi ma'lumotlarni ko'rgazmali vositalar yordamida yetkazib berish zarurligini anglatadi. O'qituvchi nutqining obrazlilik, hissiyotga boyligi va ma'lumotlarning qiziqarli ekanligi o'quvchilarning bilish faoliyatini faol tashkil etishga xizmat qiladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy me'yorlarga hurmat hissini tarbiyalash o'quv va ma'naviy-ma'rifiy ishlarining muhim tarkibiy qismidir. O'quv ishlari tarkibida ijtimoiy me'yorlarning o'rganilishi majburiylik kasb etadi. Bu majburiylik 1-4-sinflarda o'quv fani sifatida "Tarbiya" predmetini o'qitish yo'lga qo'yilganligi bilan izohlanadi. Boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan "O'qish", "Texnologiya", "Atrofimizdagi olam" va "Jismoniy tarbiya" kabi o'quv fanlari negizida ham o'quvchilar ijtimoiy me'yorlar mohiyati bilan tanishib boradilar.

Ma'lumki, ma'naviy-ma'rifiy ishlar ijtimoiy dolzarblik kasb etayotgan, pedagogik ahamiyatli masalalar, o'quvchilarning qiziqishlari, ta'lim pedagogik jamoasi oldida turgan vazifalar negizida ishlab chiqilgan reja asosida tashkil etiladi. Ana shu jihatga ko'ra ma'naviy-ma'rifiy ishlar rejasida ijtimoiy va huquqiy me'yorlarga doir bilimlarni boshlang'ich sinf o'quvchilari o'rtasida targ'ib etuvchi tadbirlarni kiritish imkoniyati mavjud.

Falsafiy, sotsiologik va huquqiy manbalarda qayd etilishicha, "odamlar va ularning birlashmalari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi umumiy xulq-atvor qoidalari" bo'lgan ijtimoiy normalar "inson – inson" munosabatlarini tartibga soladi

Ayrim manbalarda esa ijtimoiy me'yorlar "xulq-atvor qoidalari" bo'lishi bilan birga "faoliyat standartlari" ekanligiga urg'u beriladi.

Shunga ko'ra boshlang'ich sinf o'quvchilari oilada, ta'lim muassasasida hamda o'zlari mansub bo'lgan mikro guruhlarda ota-onalar, oilaning barcha a'zolari, sinfdoshlari va tengdoshlari bilan tashkil etadigan munosabatlarda muayyan qoidalarga amal qilishlari lozim.

O'quvchilarning ijtimoiy sub'ektlar bilan munosabatlarda aynan qanday xulq-atvor qoidalariga amal qilishlari zarurligini anglash uchun ijtimoiy me'yorlarning turlaridan xabardor bo'lish talab qilinadi.

Mavjud manbalarda ijtimoiy me'yorlarning quyidagi turlar bo'yicha guruhlanishi aytiladi: 1) axloqiy me'yorlar; 2) jamoat birlashmalarining me'yorlari; 3) milliy urf-odatlar; 4) turli xalqlarga xos odatlar; 5) an'ana me'yorlari; 6) siyosiy faoliyat me'yorlari; 7) huquq me'yorlari; 8) diniy me'yorlar.

Ijtimoiy me'yorlarning bu tarzda guruhlanishi ba'zi mulohazalarning tug'ilishiga sabab bo'ladi. Ya'ni:

1. Ayni o'rinda ijtimoiy me'yorlarning yuqoridagi tartibda guruhlanishida muayyan xatolarga yo'l qo'yilganligini aytib o'tish maqsadga muvofiqdir. Zero, "turli xalqlarga xos odatlar" aynan "milliy urf-odatlar"ning o'zidir. Chunki, lotin tilida "uzatish" arab tilidan tarjima qilinganda "nasldan naslga o'tuvchi qoida" esa ma'nolarini anglatuvchi "an'ana" tushunchasi besvosta "hayotda qaror topgan (topayotgan) udum, urf-odat va boshqa amallar" ni anglatadi.

2. Qolaversa, ijtimoiy me'yorlarning turlaridan biri sifatida mazkur o'rinda keltirilgan "an'ana me'yorlari" iborasini mazmunan aniqlashtirish talab etiladi. Ma'lumki, an'analar o'z mohiyatiga ko'ra muayyan jamiyatga, xalqqa yoki ijtimoiy guruh (oila, jamoa, birlashma) ga taalluqli bo'ladi. Agarda mualliflar "an'ana me'yorlari" iborasi kaysi sub'ektga tegishli ekanligini ko'rsatganlarida hech qanday tushunmovchilik yuzaga kelmagan bo'lardi. Bordi-yu, an'ana me'yorlari ma'lum xalqqa nisbatan qo'llanganilgan bo'lsa, u ham shak-shubhasiz milliy urf-odatlar mohiyatini ifodalaydi.

Zero, an'analar xalqlarning tarixiy rivojlanishi jarayonida shakllanadi va sayqallanadi. Davr talabiga javob bergan an'analar unutilmaydi, avlodlarga meros bo'lib qoladi, xalq hayotining tarkibiy qismiga aylanadi. Har bir el, millat yoki xalq o'z an'alarini rivojlantiradi, asrab-avaylaydi. An'analarda xalq dahosi, turmush tarzi, madaniy kamolot darajasi aks etadi. Ijtimoiy me'yorlar turlarini ifodalovchi guruhni: estetik me'yorlar, tashkiliy me'yorlar, faoliyatni tashkil etishga madaniy yondashuv me'yorlari kabi tushunchalar bilan yanada boyitish zarur.

#### Adabiyotlar:

1. Sh.Mirziyoyev. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz". Toshkent – "O'zbekiston" - 2016.56
2. Sh.Mirziyoyev. "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz" . Toshkent – "O'zbekiston" -2016.488 b..
3. A. Avloniy. Turkiy Guliston yohud axloq. - T., „O'qituvchi“, 2002.
4. U. Mahkamov. Axloq-odob saboqlari. - T., „Fan“, 2015.
5. J. G'. Yo'ldoshev. O'quvchi ma'naviyatini shakllantirish (qo'llanma), T., 2015.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy sub'ektlar bilan munosabatlarda aynan qanday xulq-atvor qoidalariga amal qilishlari zarurligini anglash uchun ijtimoiy me'yorlarning turlaridan xabardor bo'lishi talab qilinadigan yo'llari yoritib berilgan.

РЕЗЮМЕ

В этой статье написано о младших школьниках с социальными предметами, чтобы точно понять, каким

правилам поведения они должны следовать в отношениях, были освещены способы, с помощью которых они должны быть осведомлены о типах социальных норм.

## SUMMARY

In this article, we will talk about primary school students with social subjects to understand exactly what rules of conduct they must follow in a relationship, it has been highlighted the ways in which they are required to be aware of the types of social norms.

## MAKTABGACHA VA KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARNI IJTIMOIY-HUQUQIY ME'YORLAR BILAN TANISHTIRISH

*Abdullayeva M.D.*

*TVCHDPI "Maktabgacha ta'lim" fakulteti o'qituvchisi*

**Tayanch so'zlar:** huquqiy davlat, huquqiy jamiyat, shaxs, tarbiyalanuvchi, kichik maktab yoshi, jamoat joyi, jamoat transporti, me'yor.

**Ключевые слова:** правовое государство, правовое общество, личность, ученик, младший школьный возраст, общественное место, общественный транспорт, норма.

**Key words:** legal state, legal society, personality, student, primary school age, public place, public transport, norm.

Kirish. Mustaqil O'zbekistan Respublikasida shakllanayotgan milliy istiqlol g'oyalari fuqarolarni Respublika Konstitutsiyasida ehtirol etilgan insonparvar, demokratik, huquqiy davlat va huquqiy jamiyatni barpo etishdek ezgu maqsad atrofida birlashtirishga xizmat qiladi. Har bir fuqaroning ijtimoiy-siyosiy, huquqiy faolligini yuzaga keltirish, huquqiy madaniyatini qaror toptirish - fuqarolik (huquqiy) jamiyatning asosiy talabi sanaladi.

– Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Nutq insonlargagina xos bo'lgan faoliyat turlaridan biri hisoblanadi. Faoliyat turi sifatida aniq maqsadga yo'naltirilgan nutq "kishilik taraqqiyoti tarixida yuzaga kelgan va o'zaro muomalani tashkil etish uchun zarur so'zlashuv ko'nikmalarining rivojlanishi natijasida mustahkamlangan" (Большая психологическая энциклопедия. – Москва: Эксмо, 2007. – С. 396). Nutqning og'zaki va yozma shakllari mavjud bo'lib, kishilar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar jarayonida asosan og'zaki nutqdan foydalaniladi. Insoniy faoliyatning ushbu turi "mavhum-mantiqiy fikrlash va ongning shakllanishiga xizmat qiladi. Nutq negizida kechadigan fikriy faoliyat jarayonida esa tasavvurning shakllanishi ro'y beradi... Nutqining hissiy imkoniyati tufayli inson u yoki bu voqea-hodisaga o'z munosabatini bildiradi" (Большая психологическая энциклопедия. – Москва: Эксмо, 2007. – С. 396).

So'zlashish (suhbatlashish) jarayonida ikki yoki undan ortiq kishilarning bir-birlariga, atrof-muhitga, o'zlarini o'rab turgan ijtimoiy va moddiy borliqqa nisbatan munosabatlarini bildirishda muhim ahamiyat kasb etib, jamoatchilik tomonidan tan olingan me'yor (qoida) larga amal qilish har bir shaxs zimmasidagi burch sanaladi. Bu burchning to'la bajarilishi esa shaxs tomonidan so'zlashuv me'yorlarining puxta o'zlashtirilishini taqozo etadi. SHu bois oilada va ta'lim muassasalarida bolalarni yoshlikdan so'zlashish me'yorlari bilan tanishtirib borish muhim ijtimoiy-pedagogik vazifalardan biridir.

– Tahlil va natijalar (Analysis and results). Maktabgacha ta'lim yo'nalishidagi tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilari hamda kichik maktab yoshidagi bolalarda so'zlashuv me'yorlariga amal qilish ko'nikma hamda malakalarini shakllantirish quyidagi vazifalarni bajarish orqali ta'minlanadi:

1. Bolalarni "so'zlashish" hamda "muomala", shuningdek, "so'zlashish me'yorlari" ("muomala me'yorlari") kabi tushunchalar bilan tanishtirish.